



BIZNESDA AYLANMA KAPITALNI SAMARALI BOSHQARISHNI TASHKIL ETISH

Boboqulov E.A.-

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada biznes sub'ektlarida aylanma kapitalni samarali boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Aylanma kapitalning tarkibiy elementlari, uning aylanish mexanizmi hamda korxona moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Ayniqsa, tovar-moddiy zaxiralar, debitorlik va kreditorlik qarzlari boshqarish orqali aylanma kapital aylanishini tezlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Pul aylanish sikli va aylanish koeffitsientlari orqali aylanma kapital samaradorligini baholash usullari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *aylanma kapital, moliyaviy boshqaruv, likvidlik, pul aylanish sikli, debitorlik qarzlari, kreditorlik qarzlari, zaxiralar, samaradorlik, korxona barqarorligi, agrobiznes.*

Biznesda aylanma kapital tadbirkorlik itisodiy faoliyatining moliyaviy natijalarini va faoliyat uzluksizligini ko'rsatuvchi asosiy resurslardan biri hisoblanib, uni boshqarishni samarali tashkil etish korxonaning likvidligi, to'lovga qobiliyatligi, moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ishlab chiqarish uzluksizligi va tovarlar realizatsiyasi jarayonlarining barqaror amalga oshirishini ta'minlaydi. Tadbirkorning aylanma kapitali bozor munosbatlarini amalga oshirishda talab etiladigan ko'rsatkichlarning mezonlariga amal qilish lozimligini tadbirkorga ko'rsatuv signal sifatida ifodalanishi mumkin. Ushbu signallarga amal qilmaslik tadbirkorning asosiy kapitali qancha katta bo'lsa ham bankrotlikka olib kelishi mumkin. Shu bois har kuni valyuta kursi, inflyatsiya darajasi o'zgarib turishi mumkin bo'lgan zamonaviy iqtisodiy sharoitda aylanma kapitalni boshqarish



muammosi ma'lum bir davrda emas har doim ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu muammo bo'yicha ko'pchilik xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqot olib borishgan. Jumladan, rus olimi N.P.Kondrakov joriy aktivlar to'g'risida to'xtalib, aylanma aktivlar – material aylanma mablag'lar, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar hamda korxonalar o'rtasidagi almashuv hisoblaridagi mablag'larni tashkil qiladi, deb ta'kidlaydi¹. Bu yerda korxonlar o'rtasidagi hisoblashuvlar tarkibiga debitorlik va kreditorlik qarzlari ham kiritilib, kreditorlik qarzlari joriy aktivlarga kiritib bo'lmaydi. Shuningdek, N.A.Kamordjonova va I.V.Kartashovalar aylanma mablag'lar, xom-ashyolar, materiallar yoqilg'i, yarim fabrikatlar, tez eskiruvchi buyumlar, ishlab chiqarish uchun tayinlangan mahsulotlar, bajarilgan ishlar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar, tovar aylanmasi, boshqa firmalar qarzlari, debitorlik qarzlari², deya ta'kidlaydi.

Yo.Abdullaev, A.Ibrohimov, va M.Raximovalarning fikriga ko'ra, aylanma kapital sirasiga firmalarning moddiy aylanma mablag'lar, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar hamda qarshi tomonga debitorlik qarzlari kiritiladi³. Iqtisodchi olim Nurmanov U. A. **Aylanma kapital tushunchasiga xo'jalik sub'ektlarining doimiy harakatdagi mobil aktivlari bo'lib, bir ishlab chiqarish davrida o'z qiymatini mahsulot tannarxiga to'liq o'tkazuvchi boyliklar hisoblanib, ular tarkibiga tovar-moddiy zahiralar, kelgusi davr xarajatlari, kechiktirilgan xarajatlar pul mablag'lari, qisqa muddatli investitsiyalar, debitorlar va boshqa joriy aktivlar kiritiladi⁴.**

Mulkichilik shaklidan qat'iy nazar tadbirkorlik faoliyatini yuritish asosiy kapitalni shakllantirib bo'lgandan so'ng aylanma kapitalga muhtojlik sezadi. Mahsulot ishlab chiqarishda va uni iste'molchilarga yetkazib berish mobaynida

¹ Кондраков Н.П. Бухгалтерский (Финансовый управленческий) учет: учебник. – М.: «Проспект», 2009. – С. 8.

² Каморджанова Н.А., Карташова И.В. Бухгалтерский финансовый учет. – М.: «ПИТЕР», 2008. – С. 30.

³ Абдуллаев Ё., Иброҳимов А., Раҳимов М. Иқтисодий таҳлил 100 савол ва жавоб. – Т.: «Меҳнат», 2001. – Б. 117.

⁴ Нурманов У.А. “Жорий активлар ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Тошкент- 2012



to'liq aylanma kapitalning ishtiroki ishlab chiqarish turlariga qarab 55 foizdan 80 foizgacha ishtirok etadi. Aylanma aktivlar firmalarning qisqa muddatli oralig'ida ishlab chiqarish xajmini belgilab beruvchi asosiy resurslardan tashkil topadi, ma'lum ishlab chiqarishning bir siklida to'liq sarflanib, ikkinchi siklga o'tganda qayta tiklanadi va uzluksiz xarakatda bo'ladi. Aylanma kapital iqtisodiy iqtisodiy nuqtai nazardan muomala vositalari, jumladan pul mablag'lari, tovar moddiy – zahiralar, shuningdek, debitorlik qarzlar va qisqa muddatli moliyaviy aktivlar hisoblanadi. Ularning harakati doimiy aylanish shaklida nomoyon bo'ladi. Aylanma kapitalning ma'lum bir davrda aylanishi qancha tez bo'lsa hamda samarali tashkil etilsa, korxonaning aylanma kapitali moliyaviy resurslar mahsulot ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Aylanma kapitalni samarali boshqarishning muhim yo'nalishlaridan biri uning tarkibiy tuzilmasini optimallashtirish hisoblanadi. Bunda korxona faoliyati xususiyatlarini inobatga olgan holda pul mablag'lari, zaxiralar va debitorlik qarzlarini o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanishi lozim. Ayniqsa, tovar-moddiy zaxiralarni me'yordan ortiq shakllantirish aylanma kapitalning "qotib qolishi"ga, zaxiralar yetishmovchiligi esa ishlab chiqarish jarayonining uzilishiga olib kelishi mumkin.

Debitorlik qarzlarini boshqarish ham aylanma kapital samaradorligini oshirishda alohida o'rin tutadi. Debitorlik qarzlarining ortib ketishi korxona pul oqimlarini sekinlashtiradi va likvidlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mijozlarga tijorat krediti berish shartlarini aniq belgilash, to'lov muddatlarini optimallashtirish va to'lov intizomini doimiy nazorat qilish aylanma kapital aylanishini tezlashtirishning muhim omillari hisoblanadi.

Aylanma kapitalni boshqarishda kreditorlik qarzlaridan oqilona foydalanish ham muhim. Chunki kreditorlik qarzlarini qisqa muddatli moliyalashtirish manbai sifatida korxona aylanma kapitaliga qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Biroq to'lov muddatlarining sun'iy ravishda kechiktirilishi korxonaning ishbilarmonlik obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun kreditorlik qarzlarini boshqarishda



moliyaviy intizom va sheriklar bilan o'zaro ishonchli munosabatlarni saqlash muhim hisoblanadi.

Aylanma kapital samaradorligini baholashda aylanish koeffitsientlari va pul aylanish sikli muhim ko'rsatkichlar sifatida xizmat qiladi. Pul aylanish siklini qisqartirish orqali korxona aylanma kapitalning tezroq pul mablag'lariga aylanishini ta'minlaydi, bu esa investitsiya faoliyatini kengaytirish va rentabellikni oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida yuritilgan mulohazalar biznesda aylanma kapitalni samarali boshqarish uchun ayrim moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni, birinchidan, aylanma aktivlar likvidligini ishlab chiqarishning har bir siklida baholab borishni taqozo qiladi. Uni quyidagi ko'rsatkich orqali ifodalaymiz:

$$A_{kb} = \frac{\text{Aylanma aktivlar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}} \quad (1)$$

Bu ko'rsatkich firmalarning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z aylanma aktivlari hisobidan to'liq qoplanish imkoniyatini ko'rsatib, amaliyotda me'yoriy daraja 1,2-2,0 doirasi hisoblanadi⁵.

Ikkinchidan, firma aylanma kapitalining aylanish koeffitsientlari tahlili, jumladan, debitorlik qarzlarning aylanishi hamda zahiralarining aylanish tahlilini amalga oshirib borish lozim. O'shbu ko'rsatkichlar quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{db} = \frac{\text{Yillik tushum}}{\text{O'rtacha debitorlik qarzi}} \quad (2)$$

$$K_{za} = \frac{\text{Sjtilgan mahsulot tannarxi}}{\text{O'rtacha zahiralar}} \quad (3)$$

Debitorlik qarzlarning aylanishi koeffitsienti bir yilda yillik tushumga nisbatan bir yilda necha marta debitor qarzlarning aylanishini ko'rsatib, uning ortib borishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. zahiralarining aylanish koeffitsienti

⁵ Ваҳобов А., Маликов Т. Молия: дарслик. – Т.: Ношир, 2011. – 712 б.



firmaning sotilgan mahsulot tannarxida bir yilda zahiralarning necha marta aylanishini aniqlashtiradi.

Uchinchidan, pulning aylanish siklini ham tahlil qilib borish tadbirkorga pul mablag'larini samarali boshqarish imkoniyatini beradi. Bunda zahiralarni saqlash davri $Z_d = \frac{365}{K_{za}}$, debitor qarzlarni o'ndirish davri $DB_d = \frac{365}{K_{za}}$ yig'indisidan, K_r kreditorlik qarzlari bo'yicha tulov davrini ajratib tashlasak M_o pul aylanish siklini aniqlashtirib olamiz. Uni fuyidagi algoritm asosida hisoblaymiz:

$$M_o = Z_d + DB_d - K_r (4)$$

Yuqorida keltirilgan mulohazalar va biznesning aylanma kapitalidan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini hisoblash usullari asosida "ENERGO SIFAT TA`MIR SERVIS" MCHJ ma'lumotlari asosida tahlil qilamiz(1-jadval).

"ENERGO SIFAT TA`MIR SERVIS" MCHJda aylanma kapitalining o'zgarish dinamikasi(mln.so'm)

№	krsatkichlar	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2024-yilda 2022-yilga nisbatan o'zgarishi,marta
1	Aylanma aktivlar	1 041	895	707	0,68
2	Zaxiralar	146	146	146	1,00
3	Debitorlik qarzlari	120	56	87	0,73
4	Pul mablag'lari	30	40	201	6,70
5	Qisqa muddatli majburiyatlar	673	1 310	354	0,53



6	Yillik tushum	1 540	2 884	1 721	1,12
7	Sotilgan mahsulot tannarxi	1 500	2 785	1 192	0,79

"ENERGO SIFAT TA'MIR SERVIS" MCHJda aylanma kapitalining o'zgarish dinamikasi keltirilgan 1- jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2024 yilda pul mablag'lari aylanmasi 2022 yilga nisbatan 6,7 martaga oshgan bo'lsada, aylanma aktivlar 0,68 ni tashkitl qilgan. Bu ko'rsatkich 2022 yilda zag'irani to'plab olish maqsadida moddiy aylanma aktivlar xajmini oshirgan. Chunki, ushbu korxona beton sim ustunlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, moddiy zahiralarni g'amlab quyganda ham ularning qiymati pasaymaydi. Debitorlik qarzi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan 27 foizga kamaygan bo'lib, debitor qarzlardan samarali foydalanish darajasini oshganligidan dalolat beradi. Shuningdek, yillik tushum 2024 yilda 2020 yilga nisbatan 0,12 martaga oshgan bo'lsa, tannarx 0,21 bilikka kamaygan. Bu moddiy zahiralarni oldindan g'amlash evaziga o'sgan narx o'rtasidagi tafovutdan kelib chiqqan. Endi ushbu ma'lumotlaridan foydalanib firmaning aylanma kapital samaradorligini ifodalovchi (1,2,3,4-formulalar) ko'rsatkichlarni hisoblaymiz

2- jadval

"ENERGO SIFAT TA'MIR SERVIS" MCHJda aylanma kapitalidan samarali foydalanish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2024-yilda 2022-yilga nisbatan o'zgarishi,marta
Joriy likvidlik darajasi	1,5	0,7	2,0	1,3
Debitorlik qarzlar aylanmasi	12,8	51,5	19,8	1,5



Zaxiralar aylanmasi	10,3	19,1	8,2	0,8
debitor qarzlarini o'ndirish davri (kun)	28,4	7,1	18,5	0,6
Zahiralarni saqlash davri (kun)	35,5	19,1	44,7	1,3
kreditorlik qarzlari bo'yicha tulov davri	15,0	5,0	18,0	1,2
Pul aylanish sikli (kun)	49,0	21,2	45,2	0,9

"ENERGO SIFAT TA`MIR SERVIS" MCHJda joriy likvidlik darajasi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan 30 foizga oshgan bo'lib, me'yor (1.2-2.0) darajasida. Debitor qarzlar aylanmasi 2024 yilda 19,8 martani tashkil qilib, 2020 yilga nisbatan 0,5 birlikga oshgan. Zahiralar aylanmasi 2024 yilda 8,2 martani tashkil qilib, 2020 yilga nisbatan 20 foizga kamaygan. Shu sababli zahiralarini saqlash davri 44,7 kunni tashkil qilib, bu ko'rsatkich ancha katta ekanligini ko'rsatadi. Ammo debitor qarzlarini undirish davri 2024 yilda 18,5 kunni tashkil qilib, 2020 yilga nisbatan 40 foizga kamaygan bo'lib, ko'rsatkich yaxshilanayotganligini bildiradi. Bu esa sotilgan mahsulotning kechiktirilgan tushumini qisqarganligini anglatadi. Pul aylanish sikli esa barcha aylanma kapitalga sarflanayotgan va sotishdan tushgan pullarning yakuniy natijasini ko'rsatib, 2024 yilda 45,2 kunni tashkil qilgan. 2020 yilga nisbatan 10 foizga kamaygan. Bu ko'rsatkich yaxshilanayotganligi debitor va kreditor qarzlarining tulov davri qisqarganligidan kelib chiqadi. Firmaning likvidligi oshgani bilan zahiralarining saqlanish davri ko'p bo'lganligi sababli yalpi tushum 2024 yilda 2023 yilga nisbatan kamaygan(1-jadval).

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari aylanma kapitalni oqilona boshqarish korxonalarining likvidligi, to'lov qobiliyati va raqobatbardoshligini



oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. aylanma kapitalni samarali boshqarish korxonaning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa ishlab chiqarish sohalarida aylanma kapitaldan oqilona foydalanish resurslar cheklangan sharoitda yuqori iqtisodiy natijalarga erishish imkonini beradi. Shu bois aylanma kapitalni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va ularni amaliyotga joriy etish iqtisodiy taraqqiyotning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Vahobov A., Malikov T. Moliya: darslik. – T.: Noshir, 2011. – 712 b.
2. Kondrakov N.P. Buxgalterskiy (Finansovyy upravlencheskiy) uchets: uchebnik. – M.: «Prospekt», 2009. – S.8.
3. Kamordjanova N.A., Kartashova I.V. Buxgalterskiy finansovyy uchets. – M.: «PITER», 2008. – S. 30.
4. Abdullaev Yo., Ibrohimov A., Rahimov M. Iqtisodiy tahlil 100 savol va javob. – T.: «Mehnat», 2001. – B.117.
5. Nurmanov U.A. “Joriy aktivlar hisobi va tahlilini takomillashtirish” Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent- 2012
6. "ENERGO SIFAT TA`MIR SERVIS" MCHJ ma'lumotlari